

## QO‘G‘IRCHOQ SAN‘ATINING NAZARIY ASOSLARI

**Umarxodjayeva Ma‘mura**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti 2 – kurs mustaqil izlanuvchisi

[shohruzahon81@mail.ru](mailto:shohruzahon81@mail.ru)

***Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek xalqining madaniy-ma‘naviy va estetik hayotida muhim rol o‘ynagan an‘anaviy qo‘g‘irchoq haqida hamda qo‘g‘irchoq teatrining taraqqiyot yo‘llariga umumiy nazar tashlanib, qo‘g‘irchoq san‘ati to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** qo‘g‘irchoqsoz, qo‘g‘irchoqboz, teatr, aktyor, sahna, rejissyor, dramaturgiya, obraz, ijrochi, sozanda.*

***Abstract:** In this article, reflects on traditional puppetry, which played an important role in the cultural-spiritual and aesthetic life of the Uzbek people, and on the art of puppetry, taking a general look at the ways of development of puppet theater.*

***Keywords:** puppeteer, theater, actor, stage, director, dramaturgy, character, performer, lyricist.*

### KIRISH

Butun dunyoda qat‘iy belgilangan, yagona sahna qonuniyatlariga bo‘ysundirilgan professional teatr paydo bo‘lguniga qadar har qanday teatr turi o‘zining an‘anaviy – tarixiy yo‘lini bosib o‘tganligi barchaga ma‘lum. Barcha teatr turlarini umumiy bir xususiyat o‘zaro birlashtirib turgan. U ham bo‘lsa, tomoshaviylik, ya‘ni voqea-hodisalarni ochiq maydonda, og‘zaki dramaturgiyaga asoslangan, badihago‘ylikka yo‘g‘rilgan uslubda ijro etish bo‘lgan. Ijro uslubidagi erkinlik, qat‘iy qonuniyatlarga bo‘ysundirilmagan sahnaviy xatti-harakatdan iborat bo‘lgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri ham mustaqil teatr turi sifatida rivojlangan bo‘lib, uning ijrochiligida belgilangan talablar, ma‘lum qonun-qoidalar bo‘lgan.

Qo‘g‘irchoqbozlarning “Risolai qo‘g‘irchoq” deb atalgan o‘z risolasi ham bo‘lib, u mehtarboshi, to‘da oqsoqollari tomonidan e‘tiqod bilan avaylab saqlangan, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Risolada yozilgan talablarga hamisha ham amal qilinmagan, ajdodlar xotirasi, soha pirlarini ranjitmaslik, ularning ruhi-poklarini shod aylash maqsadida risolaga alohida hurmat bilan qaralgan.

Qo'g'irchoq teatri ijrochiligi qoidalari an'anaviy teatrning boshqa turlari kabi og'zaki xarakterga ega bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelgan. Bu san'at bilan maxsus bir usta qo'lida o'n yillab tarbiya topib, soha sirlarini o'zlashtirgan shogirdgina mustaqil shug'ullangan. Tabiiyki, bu san'at turi bilan havaskorlar shug'ullanmagan. Shogird ko'p yillar davomida kuzatish, mashq qilish, yodlash orqali qo'g'irchoq boshqarish asoslarini puxta o'rgangan. Ma'lum ko'nikma va mohirlikka erishgach, bu sohada mustaqil faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lgan.

San'atshunoslikda qo'llaniladigan asosiy metodologiyalardan: tarixiy nazariy, tarixiy-solishtirma, tipologik, solishtirma, sotsiologik metodlardan foydalanildi.

### **NATIJALAR**

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, qo'g'irchoqbozlik san'ati otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Bu xuddi hunarmandchilik, dorbozlik sohalariga o'xshaydi. Qo'g'irchoq o'ynatish – bu chindan ham hunar. Ushbu hunarni yuksak darajada egallash va yillar davomida shakllangan mahoratni charxlab borish uni san'at darajasiga yetkazgan.

Ko'rib turganimizdek, qo'g'irchoqboz otaning o'g'li uning hunarini davom ettirishi u qadar qiyin kechmagan. Sababi, oilaviy muhit, ijodiy shart-sharoit va ota (ustoz)ga yaqin ko'makchi bo'lish asnosida shogird-o'g'il qo'g'irchoq o'ynatish sir-asrorlarini chuqur o'rgangan. Sanalgan omillarning bari o'z-o'zidan shogird-o'g'ilni o'zlashtirayotgan hunarining haqiqiy egasiga aylanishiga turtki bergan.

An'anaviy qo'g'irchoq teatri jamoa-jamoa bo'lib ijod qilgan. Truppaning eng kichigida uch kishi, kattasida o'n kishi ishlagan. To'daning kichigi qo'g'irchoqboz, korfarmon va doirachidan, kattasi esa ishboshi, qo'g'irchoqboz, cho'poyoq hamda sozandalar guruhi: karnaychi, surnaychi, nog'orachilardan tarkib topgan.

### **MUHOKAMA**

An'anaviy qo'g'irchoq teatrining "Chodir jamol" turida aktyor bir vaqtning o'zida ikki personajni jonlantirsa, "Chodir xayol"da qo'g'irchoqboz bir vaqtning o'zida iplar yordamida 8-10 qo'g'irchoqni harakatga keltira olgan. "Chodir jamol"ning bir tomoshasida 10 ta, "Chodir xayol"da 50 ta qo'g'irchoq personaji gavdalantirilgan. Shuning o'zi an'anaviy qo'g'irchoq teatri aktyorligi qo'g'irchoq boshqarishda mohirlikka va katta tajribaga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Birgina aktyorning tomoshada 50 ga yaqin personajni jonlantirishi ham jismoniy, ham ijodiy tomondan katta tayyorgarlikni talab etgan. Bu jarayonda har bir qo'g'irchoqqa mos xarakter, ifodaviy vosita, so'z ohangi, harakat topish oson emas. Qolaversa, birgina "Chodir jamol" teatri qo'g'irchoqlarining hajviy personajlar, xalq tiplari, san'atkorlar qiyofalari hamda hayvon va afsonaviy mahluqlar kabi turlarga bo'linishi, "Chodir xayol"ning amaldor, davlat arboblari, aslzodalar qiyofasini gavdalantirishi qo'g'irchoqboz oldiga jamiyatdagi barcha tabaqa vakillarining hayoti,

yurish-turishi, fe'l-atvorini yaxshi bilish, ularga xos harakat, so'z va ifoda vositalarini topish vazifasini yuklagan.

Bundan tashqari, "Chodir xayol" teatrida tarixiy shaxslar obrazlarini yaratishga keng e'tibor berilgan. Uning tomoshalarida o'ynatiladigan qo'g'irchoqlarning yasaliq texnikasi murakkab bo'lib, ularni boshqarayotgan aktyordan o'tkir zehn va katta mahorat talab qilingan. Tomoshada qo'g'irchoqlar iplar vositasida harakatlantirilib, pyesadagi har bir qahramonning xarakteri va tipidan kelib chiqqan holda qo'g'irchoqlar yasalgan. Sahna (chodir)da tomosha san'atining maymunbozlik, nayrangbozlik, olovbozlik kabi turlari mohirlik bilan ko'rsatilgan. Bunda qo'g'irchoqbozlar har bir obrazni talqin qilish va xarakterlarni ishonarli qilib ifodalashda qo'g'irchoqlarning boy imkoniyatlaridan foydalanganlar.

Qo'l qo'g'irchoqlariga qaraganda iplar vositasida jonlantiriladigan qo'g'irchoqlarni boshqarish nisbatan mukammal va murakkab hisoblanadi. Qo'l qo'g'irchoqlarida qo'g'irchoqning pastki qismi, ya'ni oyoqlari kamdan-kam hollarda tasvirlansa, iplar orqali boshqariladigan qo'g'irchoq turlarida qo'g'irchoqning butun gavdasi: boshi, qo'li, oyoqlari to'raligicha tasvirlangan. Tabiiyki, bu ishni yanada murakkablashtirgan. Bunda qo'g'irchoqboz bir paytning o'zida uning butun gavdasi bilan turli murakkab holatlarni ifodalashiga to'g'ri kelgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, "Chodir xayol" teatrining bizga yetib kelgan yagona "Sarkardalar" pyesasini ijro etishda aktyorlar soni kam bo'lishiga qaramay, sahnadagi voqealar izchilligi uzilmagan, bir qahramon ketib o'rmini boshqasi egallagan. Ko'p yillik izlanish, mehnat aktyorlarni o'z sohalarida professional bo'lib yetishlarini ta'minlagan.

An'anaviy qo'g'irchoq teatri ijrochiligida kormarfonni ana shunday professional aktyorlar sirasiga kiritish mumkin. Boisi, keng tarqalgan "Chodir jamol" va "Chodir xayol" teatr turlarining har ikkisida u asosiy o'rinni egallagan. O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatrida u ham rejissyor, ham dramaturg, ham ijrochi va sozanda vazifasini bajargan, tomoshaning g'oyaviy-badiiy jihatdan yaxlitligini ta'minlagan.

Korfarmon jonli plandagi qo'g'irchoqboz sifatida tomoshaning ijrochisi, voqealarni izdan chiqmasligini nazoratda tutib turadigan rejissyor, qo'g'irchoqbozning yetkazib bera olmagan dialoglarini to'ldirib, tomoshabinga aniqroq yetkazib beradigan dramaturg, aktyor so'zlarini eslatib turadigan suflyor va tomoshani boshidan oxirigacha boshqarib turadigan konferansyedir. Ko'rib turganimizdek, korfarmon bu bir varakayiga to'rt-besh funksiyani bajaruvchi serqirra ijodkor. "U odatda chodir ichida (yoki ortida) turib qo'g'irchoq chiqarib o'ynatayotgan aktyorga nisbatan tajribaliroq, tomosha tartibini unga nisbatan yaxshiroq, to'liqroq biladi, lozim bo'lganda, tomoshabinga sezdirmasdan uni tuzatib turadi. Korfarmon – bu xalq

donishmandligi, odobi, aql-farosatini o‘zida mujassamlashtirgan fuqaro namoyondasidir” [1].

Har qanday teatr turining dastlabki pog‘onasi, tarixiy yo‘li, professional teatr paydo bo‘lguniga qadar xalq orasida mashhur bo‘lgan, sevilgan, kutilgan tomoshada tomoshaviylik ustun turadi. Tomoshaning tomoshabop bo‘lishi eng birinchi galdagi talabdir. Yo‘qsa, ijrochi tomoshabinni yo‘qotadi. Uni yo‘qotish esa nafaqat tirikchilik, balki or-nomus, hayot-mamot masalasi bilan tengdir. Shu tufayli an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrida tomoshaning tomoshaviyligini ta’minlaydigan omillarga ayniqsa, tomoshaviylikni ta’minlaydigan badihago‘ylik masalasiga mas’uliyat va jiddiylik bilan yondashilgan.

Bilamizki, badihago‘ylik barcha an’anaviy tomosha turlarining eng muhim xususiyatidir. Masxarabozlik, dorbozlik, nayrang va boshqa tomosha turlarida u tomoshaning umumiy maromini bir xilda ketmasligini ta’minlaydi. Bu jarayonda qo‘g‘irchoqbozlar doim tomoshabinlar auditoriyasi, tomosha joyiga qarab dialoglarni o‘zgartirib turganlar. Jonli planda korfarmon yetakchilikni qo‘lga olib, tomoshaning mazmunli, badiiy yuksak saviyada o‘tishini nazorat qilgan.

Badihago‘ylik qo‘g‘irchoqbozning (umuman har qanday aktyorning) asosiy quroli bo‘lib, uni hamisha faol pozitsiyada bo‘lishini ta’minlaydi. Aktyorning topqirlik, vaziyatdan ustalik bilan chiqa olish fazilatlarini shakllanishiga turtki beradi. Qolaversa, u doim aktyorni “forma”da ushlab turadi. Yaxshi qo‘g‘irchoqboz yaxshi improvizator bo‘lish demakdir.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri ijrochiligida qo‘g‘irchoq teatri aktyori xalq orasidan chiqqan maxsus vakil sifatida jamiyat ro‘parasiga oyna tutgan. Uning badiiy-estetik qarashlarining mezonini belgilagan va professional ijrochilik maktabiga ega bo‘lgan. Professional deganda biz, serqirralikka urg‘u berishni istardik. Boisi bir paytning o‘zida to‘rt-besh hunarni egasiga aylanish, o‘z sohasining tarkibiy qismlarini chuqur o‘zlashtirish – bu chindan ham ayniqsa, hozirgi kunda katta mahoratni talab qiladi. Bu borada o‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatri professional turdagi qo‘g‘irchoq teatri ijrochiligi uchun ibrat bo‘la oladi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006. 90-b.
2. M.Qodirov., Xalq qo‘g‘irchoq teatri. -T.: “San’at” jurnali nashriyoti. 2022 y.
3. D.Alimkulova PAINTING:CREATIVE SOURCE FOR CONTEMPORARI ART ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.
4. Д.Алимкулова. Ўзбекистон тасвирий санъатига назар. Ўтмишга назар. № SI-3 (2021) DOI [HTTP://DX.DOI.ORG/10.26739/2181-9599-2021-SI-3](http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-SI-3)  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=XzkIQ5EAAAAJ&citation\\_for\\_view=XzkIQ5EAAAAJ:hqOjcs7Dif8C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=XzkIQ5EAAAAJ&citation_for_view=XzkIQ5EAAAAJ:hqOjcs7Dif8C)